XALQ DEPUTATLARI BEKTEMIR TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

Toshkent 100158, X.Boyqaro ko‘chasi, 2-uy. Tel.: (71) 295-02-46, Faks: (71) 231-65-25. www.bektemir.uz

2023 - yil 30 - dekabr II-85-178-14-198-K/23 Bektemir tuman hokimligi

2024-yil uchun Bektemir tuman mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari va Byudjet kodeksining 99-moddasiga, 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuni hamda xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “2024-yil uchun Toshkent shahar mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-95-278-14-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq, Toshkent shahar Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrdagi 01-3/2693-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Bektemir tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) va xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “2024-yil uchun Toshkent shahar mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-95-278-14-0-K/23-son qarori (keyingi o‘rinlarda Qaror deb ataladi) qabul qilinganligi:

Qarorning 5-ilovasiga muvofiq Bektemir tuman mahalliy byudjetining 2024-yil uchun daromadlari 67 068 000,0 (oltmish yetti milliard oltmish sakkiz million) so‘m va xarajatlari 67 068 000,0 (oltmish yetti milliard oltmish sakkiz million) so‘m miqdorida balanslashgan holda belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yil uchun Bektemir tuman mahalliy byudjetining daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Bektemir tumanining tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga;

2024-yil uchun umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha Toshkent shahar mahalliy byudjeti bilan tumanlar mahalliy byudjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Toshkent shahar bo‘yicha G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun Bektemir tumanining tuman mahalliy byudjetining zaxira jamg‘armasi hajmi 573 990,0 (besh yuz yetmish uch million to‘qqiz yuz to‘qson ming) so‘m miqdorida;

2024-yil uchun Bektemir tumani byudjeti shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 263 000,0 (ikki yuz oltmish uch million) so‘m etib

belgilansin.

5. Qonun bilan 2024-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan, mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tumanlar byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

- ijaradan tushadigan tushumlar.

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar Toshkent shahar mahalliy byudjeti hamda tumanlar mahalliy byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

- aylanmadan olinadigan soliq;

- benzinni, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

- yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig‘i;

- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘grisidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘laydigan daromad solig‘i teng ulushlarda taqsimlash.

6. Quyidagilar Toshkent shahrining shahar byudjetidan, tumanlar byudjetlaridan moliyalashtiriladi:

- Soliq qo‘mitasining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshkent shahri, tumanlar Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari.

7. Bektemir tumani hokimining birinchi o‘rinbosari (F.Nigmanov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (N.Juliboyev), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Eshkuvatov) va mas’ul bo‘lim va tashkilotlar bilan birgalikda:

- tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

- mahalliy byudjet prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;

- byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

- byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

- tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

- byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

8. Bektemir tuman soliq inspeksiyasi (A.Eshkuvatov), O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida

belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

- soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

- yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

- aylanmadan olinadigan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

- bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

- xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish;

- Kadastr agentligi Bektemir tuman bo‘limi bilan birgalikda tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

9. Majburiy ijro byurosi Bektemir tuman bo‘limi (U.Xamidov), Bektemir tuman soliq inspeksiyasi (A.Eshkuvatov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rib borishni ta’minlasin.

10. Xalq deputatlari Bektemir tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:

- mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etiladigan takliflarini belgilangan muddatlarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish;

- Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatish, tavsiyalar berish va monitoring qilish;

- mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

11. Quyidagilar:

- tuman byudjeti jami xarajatlarining 5 foizdan kam bo‘lmagan miqdorda hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirishni;

- bunda, Xalq deputatlari tuman Kengashi, yoshlar ishlar agentligi, tumanlar hokimliklari huzuridagi jamoatchilik Kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishni tavsiya etish;

- mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borish

topshirilsin.

12. Bektemir tumani hokimining birinchi o‘rinbosari, tuman soliq inspeksiyasi, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi va tegishli bo‘limlar bilan birgalikda:

- mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

- ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Xalq deputatlari Bektemir tuman Kengashiga chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

13. Bektemir tuman hokimligi matbuot xizmati (S.Ovlaqulov):

- mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

14. Xalq deputatlari Bektemir tuman Kengashining 2023-yil 6-yanvardagi “Bektemir tumanining 2023-yil uchun mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi II-66-1-14-198-K/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

15. Ushbu qaror 2024-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

16. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Bektemir tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va Bektemir tuman hokimining birinchi o‘rinbosari F.Nigmanov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **T.Maxamadziyayev**

Xalq deputatlari Bektemir tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
II-85-178-14-198-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Bektemir tumani mahalliy budjeti daromadlari prognozi

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**67 068 000,0**
1.	Jismoniy shaxslarning daromad solig‘i	6 403 000,0
-	Ijara to‘lovi	538 000,0
2.	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	2 273 000,0
3.	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	8 405 000,0
4.	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	2 205 000,0
5.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	6 933 000,0
6.	Aylanmadan olinadigan soliq	4 079 000,0
7.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	36 232 000,0

Xalq deputatlari Bektemir tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
II-85-178-14-198-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024-yilgi Bektemir tumani mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming.so‘m

№	Ko‘rsatkichlar	2024 yil
A	*B*	
Xarajatlar miqdori, Jami		***67 068 000,0***
1.	***IJTIMOIY SOHA VA AHOLINI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASHGA XARAJATLAR - JAMI***	***28 417 692,0***
	shu jumladan;	
1.1	**Maorif**	**17 731 390,0**
	joriy xarajatlar:	*17 731 390,0*
-	**Maktabgacha ta’lim sohasi**	***7 957 254,0***
	joriy xarajatlar:	*7 957 254,0*
-	**Xalq ta’limi sohasi**	**9 774 136,0**
	joriy xarajatlar:	*9 774 136,0*
1.2	**Sog‘liqni saqlash sohasi**	**1 810 093,0**
	joriy xarajatlar:	*1 810 093,0*
1.3	**Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari**	**8 699 566,0**
	joriy xarajatlar:	*8 699 566,0*
-	**Madaniyat sohasi**	**1 277 746,0**
	joriy xarajatlar:	*1 277 746,0*
-	**Jismoniy tarbiya va sport sohasi**	**7 421 820,0**
	joriy xarajatlar:	*7 421 820,0*
1.4	**Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi**	**50 824,0**
	joriy xarajatlar:	*50 824,0*
1.5	**Ijtimoiy ko‘nikma markazlari**	**125 819,0**
	joriy xarajatlar:	*125 819,0*
2.	***IQTISODIYOTGA XARAJATLAR - JAMI***	***12 007 575,0***
	shu jumladan;	
2.1	*Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarini ta’mirlash xarajatlari*	***1 325 000,0***
2.2	**Obodonlashtirish sohasi**	**9 127 432,0**
	joriy xarajatlar:	*9 127 432,0*
2.3	**“Mahalla byudjeti” jamg‘armasi mablag‘lari**	**1 555 143,0**
3.	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**16 888 743,0**
	joriy xarajatlar:	*16 888 743,0*
4.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**9 180 000,0**
	joriy xarajatlar:	*9 180 000,0*
5.	**Zaxira jamg‘armasi**	**573 990,0**
	joriy xarajatlar:	*573 990,0*
	JAMI DAROMADLAR	***67 068 000,0***
	TRANSFERT	*0,0*

Xalq deputatlari Bektemir tuman Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
II-85-178-14-198-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024-yil uchun Bektemir tumani byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari

№	Tuman nomi	Aylanmadan olinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno
1.	Bektemir tumani	18%	4%	6%	100%